



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2022 - yil «26» - sentabr

VI-58-204-8-0-K/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

### **Termiz tumanidagi “Qahramon” va Qumqo‘rg‘on tumanidagi Ouzikent, Egriqoq, Lupang, Maxat, Kochay hamda Qaychili aholi punktlari nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida**

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonil “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 13-avgustdagi 18-01/217 va 18-01/218-sonli xulosalarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 13-avgustdagi 18-01/217 va 18-01/218-sonli xulosalari ma‘qullansin.

2. Termiz va Qumqo‘rg‘on tumanlarida nomlari o‘zgartiriladigan aholi punktlarining ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Statistika boshqarmasi (U.Alimov) nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining elektron bazasini shakllantirish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida belgilangan tartibda va muddatda o‘rnatilishini ta‘minlasin.

5. Viloyat hokimining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish,

davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (O.Sevarov), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (N.Rahmatullayeva) va Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari tomonidan mahallalar, ko'chalar va aholi punktlari nomlarini o'zgartirish bo'yicha xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlariga belgilangan tartibda takliflar kiritib borsin.

6. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To'rayev), "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur masala yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mahalliy gazetalar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



Bobolov T.A.

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat  
Kengashining  
2022 yil 26 sentabrdagi  
VI-58-204-8-0-K/22-son qaroriga  
1-ilova

*ilova*

**Termiz va Qumqo‘rg‘on tumanlarida nomlari o‘zgartiriladigan aholi  
punktlarining**

**RO‘YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Geografik obyekt turi</b>	<b>Joylashgan joyi</b>	<b>Geografik obyektning amaldagi nomi</b>	<b>Geografik obyektning o‘zgartirilgan nomi</b>
<b>Termiz tumani bo‘yicha</b>				
1	Aholi punkti	“Yangiariq” QFY	Qahramon	Do‘stlik
<b>Qumqo‘rg‘on tumani bo‘yicha</b>				
2	Aholi punkti	“Oqqapchig‘ay” QFY (“Tebat” MFY)	Ouzikent	Chorvador
3	Aholi punkti	“Ketmon” QFY (“Ko‘ganli” MFY)	Egriqoq	Oltin kamar
4	Aholi punkti	“Ketmon” QFY (“Ko‘ganli” MFY)	Lupang	Karvon yo‘li
5	Aholi punkti	“Ketmon” QFY (“Ko‘ganli” MFY)	Maxat	Oydin ko‘l
6	Aholi punkti	“Arslonboyli” QFY (“Achamayli” MFY)	Kochay	Zamin
7	Aholi punkti	“Arslonboyli” QFY (“Achamayli” MFY)	Qaychili	Navro‘z